



№ 1/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**



ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 1 2026 fevral

## Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
2022-yil 25-oktyabrda  
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan  
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va  
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
Oliy attestatsiya komissiyasi  
Rayosatining 2024-yil 8-maydagi  
№354-sonli qarori bilan  
**Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy attestatsiya  
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy  
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar  
ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili: 170100 Andijon shahri,  
"Do'stlik" ko'chasi, 4uy, 216-xona.  
Electron manzil: info@adpi.uz  
Telegram: ADPI\_Ilmiy\_xabarnomasi  
Telefon raqamlari: +998 91 484 40 90

1/1

**BOSH MUHARRIR:**  
**B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor**  
**Mas'ul muharrir:**  
**B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor**

### TAHRIR KENGASHI

**S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi**  
**I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor**  
**Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor**  
**A.E. Zaynabiddinov- biologiya fanlari doktori, professor**  
**B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor**  
**A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor**  
**Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor**  
**Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.A. Tojiboyeva – filologiya fanlari doktori, professor**  
**Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor**  
**A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc). professor**  
**T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent**  
**M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent**  
**A.A. Zaparov- texnika fanlari nomzodi, professor**  
**U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor**  
**M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor**  
**L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor**  
**Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent**  
**D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**O'M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**K.S. Karimov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**  
**M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)**  
**N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)**  
**M.I. O'rinboev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

**Muharrirlar:**  
**O.Karimov,**  
**U.Malikova,**  
**B. Mashrabova.**

<b>Xalikov A.A.</b> Talabalar o'rtasida o'tkaziladigan turli reglament asosidagi futbol musobaqalarni ahamiyati .....	<b>135</b>
<b>Abdullayev F.D.</b> Kichik yoshdagi o'quvchilarning jismoniy mashqlarga adaptatsiyalanish jarayonining boshlanishi .....	<b>140</b>
<b>Botirov A.A.</b> O'zbek tili tarixiy terminlari va leksikasining davriy taraqqiyoti .....	<b>145</b>
<b>Камалходжаева С.С.</b> Типы межъязыковых связей: родство и контакт .....	<b>148</b>
<b>To'rayev A.T.</b> Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'sish va rivojlanishiga jismoniy mashqlarni ta'sir kuchi .....	<b>153</b>

#### **IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR**

<b>Abduraimov Sh.N.</b> Tarbiya fanini o'qitishda jamoada ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish uchun innovatsion texnologiyalarning qo'llashning ahamiyati .....	<b>158</b>
<b>Jo'raev Sh.M.</b> Falsafa fanini oqitish orqali mantiqiy tafakkurni rivojlantirish tajribasi .....	<b>164</b>
<b>Hoshimova G.Sh.</b> Oila va ta'lim mas'uliyati sharoitida turmush qurgan talabalarning psixologik barqarorligi .....	<b>167</b>
<b>Botirov A.A.</b> XX asrda o'zbek tili leksikasida ruscha o'zlashmalar: qiyosiy filologik tahlil .....	<b>171</b>

#### **ANIQ VA TABIIY FANLAR**

<b>G'aniyev A.G.</b> "Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (MIND MAP) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish .....	<b>174</b>
<b>Tuxtayeva M.Sh.</b> Iqtisodiy kompetentlikni rivojlantirishda raqamli transformatsion muhitga moslashuvchan faol tajribaga asoslangan ta'limning ahamiyati .....	<b>178</b>
<b>Aslonov X.Sh.</b> O'quvchilarni olimpiadalarga tayyorlashda masalalar yechish usullari va texnologiyasi .....	<b>183</b>

sezayotgani ma'lum bo'lsa, o'qituvchi dars metodikasini differensial tarzda moslashtiradi. Bu yondashuv talabalarning akademik va shaxsiy ehtiyojlarini inobatga olib, moslashtirilgan o'qitish modelini yaratadi. Xalqaro tajribada bunga misol tariqasida individual o'quv rejalari yoki "shaxsiylashtirilgan ta'lim" konsepsiyasini keltirish mumkin – bunda so'rov va diagnostika orqali har bir talabaning kuchli va zaif jihatlari aniqlanib, shu asosda moslashtirilgan metodika tuziladi. Interfaol o'qitish modellarini sinab ko'rish: Agar talabalar so'rovlari darslar juda monolog tarzda o'tayotganini, zerikarli ekanini ko'rsatsa, strategik qaror sifatida yangi interfaol modelni joriy etish sinov tariqasida amalga oshiriladi. Masalan, an'anaviy ma'ruza o'rniga "flipped classroom" (teskari sinf) usulini bir semestr sinab ko'rish mumkin – bunda nazariy ma'lumotlar mustaqil o'rganiladi, auditoriya vaqtida esa ko'proq muhokama va amaliy mashqlar qilinadi. Bunday eksperimentlardan so'ng yana takroran so'rov o'tkazilib, yangi modelning samaradorligi baholanadi. Agarda interfaol model talabalarning faolligi va o'zlashtirishini sezilarli oshirgani so'rovda tasdiqlansa, u holda uni kengroq joriy etish strategiyasi ishlab chiqiladi. Aksincha bo'lsa, boshqa model sinab ko'riladi. Shu tariqa, so'rovlar yordamida "tajriba va xato" tamoyili ilmiy yondashuv bilan uyg'unlashadi – har bir yangi strategiya kichik miqyosda sinovdan o'tkazilib, faqat tasdiqlangan samaralisi keng tatbiq etiladi.

Xulosa qilib aytganda, so'rovnomalar zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ular pedagogik samaradorlikni baholashda ham, ta'limni rivojlantirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda ham beqiyos rol o'ynaydi. Ular ta'lim sifati haqida tizimli, raqamli va ishonchli ma'lumot taqdim etadi, buning evaziga o'qituvchilar o'z faoliyatini oshkora tahlil qila oladi, muassasalar esa dalillarga asoslangan strategiyalar ishlab chiqadi. So'rovlar tufayli talabalarning ovozi kuchayib, ta'lim jarayoni tobora talaba markazli va interfaol bo'lib bormoqda. Xalqaro tajribalar (PISA baholari, TALIS so'rovlari va hokazo) ko'rsatadiki, aynan shunday yondashuv ta'lim tizimlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda – ularni innovatsiya, takomillashtirish va uzluksiz o'sish sari yetaklamoda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бочаров В. А. Аристотель и традиционная логика: Анализ силлогистических теорий. - Москва: Издательство МГУ, 1984.
2. Ионин Л. Г. Социология культуры: Учебник. - Москва.: ГУ ВШЭ, 2004.
3. Mamatov N., Abduxolliqov J., Qahhorova M. Mantiq. (o'quv qo'llanma). Toshkent, Toshkent moliya institut. 2004 y.
4. Юлдашева М., Муҳаммадалиева Ш. Мантикий тафаккурнинг умумий қонунлари. Современное образование 2019.
5. Ходикова Н. Логика и критическое мышление: история и современность. Известия высших учебных заведений. Северо-Кавказский регион. Общественные науки, №. 3, 2019.

UO'K: 821.512.133

#### OILA VA TA'LIM MAS'ULIYATI SHAROITIDA TURMUSH QURGAN TALABALARNING PSIXOLOGIK BARQARORLIGI

<https://zenodo.org/records/18754852>

**Hoshimova Gulbahor Shavkatjon qizi,**  
*Andijon davlat pedagogika instituti*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada turmush qurgan talabalarning oila va ta'lim mas'uliyati sharoitida stress, depressiya, frustratsiya kabi holatlardagi psixologik barqarorligi xususida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *oil, nikoh, oilaviy hayot, talaba, qaynona, qaynota, qaynsingil, qaynuka, mas'uliyat, burch, stress, depressiya, frustratsiya, psixologik barqarorlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, adaptatsiya.*

**Аннотация.** В данной статье рассматривается психологическая устойчивость состоящих в браке студентов в условиях стресса, депрессии и чувства безысходности с точки зрения семейных и образовательных обязанностей.

**Ключевые слова:** семья, брак, семейная жизнь, студент, свекровь, свекор, невестка, шурин, ответственность, долг, стресс, депрессия, фрустрация, психологическая устойчивость, социальная поддержка, адаптация.

**Abstract.** This article the psychological resilience of married students is examined in situations of stress, depression, and hopelessness from the perspective of family and educational responsibilities.

**Keywords:** family, marriage, family life, student, mother-in-law, father-in-law, daughter-in-law, brother-in-law, responsibility, duty, stress, depression, disappointment, psychological stability, social support, adaptation

Mamlakatimizda yoshlarning bilim olishi, kasb-hunar sirlarini mukammal egallashlari uchun hamma shart-sharoitlar yaratilib berilmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarning yetuk kadr bo'lib yetishishlari uchun yaratilgan zamonaviy ta'lim muhiti xalqaro tendesiyalar doirasida takomillashib bormoqda. Davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga talabalikka qabul qilish kvotalarining yildan yilga ortib borayotganligi juda ko'plab yigit-qizlarga nufuzli ta'lim dargohlarida bilim olish imkonini bermoqda. Talabalik – ulkan sharaf va katta mas'uliyatdir. Bu mas'uliyatni ado etish talabadan irodaviylik, izlanuvchanlik, o'ziga ishonch, ruhiy barqarorlik hamda kuchli intellektual faoliyat talab etiladi. Oliy o'quv yurtida o'qib yurgan davrda turmush qurgan talabalarning ko'pchiligida oilaviy va ta'limiy majburiyatlar sababli sifatli ta'lim olish imkoniyatlari cheklanib qolayotgani hech kimga sir emasdir.

Oila – jamiyatning kichik bir bo'lagi. Oila – nikohga va yaqin qarindoshlikka asoslangan axloqiy mas'uliyat, o'zaro hurmat, tushunish va mehr-muhabbat umumiyliги bilan bog'langan kichik ijtimoiy guruh [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek: Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. Ota-onalar o'g'il yoki qizlarini uyli-joyli qilish jarayonida, odatda, bo'lajak kelin yoki kuyovning o'qimishli, biror bir kasb-hunar egasi ekanligiga alohida e'tibor qaratadilar. O'qishni davom ettirayotgan yigitlar, ayniqsa, talaba qizlarning turmush qurish holatlari ko'proq oila kattalarining – ota-onalarning xohish-irodasi bilan yuzaga keladi.

O'qish davrida oila qurgan talaba qizlarning zimmasiga o'qish, bilim olish mas'uliyati, oilaviy majburiyatlar bir vaqtda, teng yuklanadi. Ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlardagi o'zgarishlar talabaning ruhiyatiga, bilim olish darajasiga u yoki bu darajada ijobiy hamda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Psixolog olim E.G'oziev bu haqida shunday yozadi: "Odatda ob'ektiv (tabiiy) va sub'ektiv (shaxsga oid) shart-sharoitlardagi o'zgarishlar tufayli ijobiy (pozitiv) yoki salbiy (negativ) xususiyatli psixologik holatlar, hodisalar, xislatlar, kechinmalar ustuvorligi yuzaga kelib, moddiy asos funksiyasini bajaruvchi oliy nerv faoliyatini, markaziy nerv sistemasining ritmikasinini, ishchanlik qobiliyatini pasaytiradi. Buning oqibatida faoliyat, xulk va muomala amalga oshirishda odatiy sa'y-harakatlar, operatsiyalar, maromlar buzila boshlaydi, favqulodda asabiylik, ruhiy nuqsoniylik, qonuniyatdan chetga og'ishlik, noxush kechinmalar hokimligi yetakchilik qiladi. Xuddi shu sababdan, faoliyat, xulk va muomalaning muvaffaqiyati shubha ostida qolishi mumkin, chunki mahsuldorlik, sobitqadamlilik, maqsadga yo'nalganlik sifatlarining dominantligi yo'qoladi, natijada ushalmagan ezgu niyatlar armon tariqasida yuksak his-tuyg'ular sifatida davriy hukm surishda davom etaveradi" [2].

Turmushga chiqqan, yosh ona bo'lgan talaba qizlarning holatini tasavvur qilib ko'rish mumkin. Agar bolasiga qarab turadigan yaqinlari bo'lsa, 2-3 para darslarga borib kelishi

mumkin, agar bo'lmasa-chi? Bolasi emizikli bo'lsa-chi? Xullas, o'qish, oila va farzandi o'rtasida muvozanatni saqlab, sifatli o'qiy olish – talaba bo'lgan yosh onalar uchun juda katta vazifa. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi matbuot xizmatidan olingan ma'lumotga ko'ra, hozircha OTMlarda xodimlar, talabalarning bolalari uchun maxsus bog'chalar, emizish xonalari tashkil qilinmagan. Hozir davlat OTMlarida homilador, yosh bolali talaba qizlar ta'lim olishi boshqa talabalarga nisbatan qiyinroq. Ular o'zlari uchun sharoit qilib harakat qilishga majbur [3].

Psixolog olimi N.X.Lutfullaevaning ta'kidlashicha, talabalar oilasi o'ziga xos ijtimoiy guruh sifatida muayyan ruhiy o'zgarishlar, talabalik hayotiga monand munosabatlar, er va xotin roliga xos mas'uliyat, ijtimoiy mavqe doirasida bo'lib, unda boshqacha qadriyatlar tizimi, ota-onalik, turmush o'rtoqlik haqidagi tasavvurlar, atrofdagi kishilarga nisbatan munosabatga o'zgacha daxldor fikrlash stereotiplari kuzatiladi. Binobarin, yangi vazifalarning muqarrarligi, yangi mavqe va obro'ga mos ravishda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish, hayotiy yo'nalishlarini tanlay bilish, er va xotin rollarini o'zlashtirish kabilar sodir bo'ladi. Ushbu jarayonlarni er va xotin tomonidan amalga oshirilishi osonlik bilan erishilmaydi. Ba'zan talabalik hayoti esa o'ziga xos xususiyatlari bilan bu kabi masalalarni yechish, hal etishda muayyan psixologik to'siqlarni bartaraf etishni taqozo etadi [4].

Ma'lum bo'ladiki, talabalik davrida oila qurish juda katta mas'uliyat va qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bu go'yo o'z imkoniyatidan tashqari, ikki hissa yuk ko'tarishga o'xshaydi. Yangi oilaning yangi sharoitlari, yangi tartiblari natijasida kutilgan va kutilmagan yangi to'siqlar ham reallasha boradi. Bir tomondan oila yumushlari, ikkinchi tomondan o'qish tashvishlari talabani toliqtirib boradi. Uzlüksiz jismoniy zo'riqish, ruhiy bosim insonni stress, depressiya, frustratsiya kabi psixologik holatlarga olib kelishi mumkin.

Stress. Oilali talabalarda yashash joyining o'zgarishi, vaqtning tanqisligi, munosabatlar to'qnashuvi, yetarlicha dam olmaslik, me'yordan ziyod axborotlarning yuklanishi stressning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Imtihonlar jarayonida fanlardan sinovlarni o'z vaqtida topshira olmagan oilali talaba stressni yanada kuchliroq his qiladi. Unda asabiylashish, jizzakilik, jahldorlik, qaysarlik, bosh og'rig'i, yurak siqilishi, doimiy charchoq, uyqusizlik, ishtahaning yo'qolishi kabi simptomlar kuzatiladi. Stressning surunkali davom etishi depressiyaga olib keladi.

Depressiya psixologik holat sifatida stress holatlarining to'xtovsiz davom etishi, emotsional toliqishning kuchayishida yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Bunday vaziyatlarda oilali talaba o'ziga past baho beradi, o'zini aybdor sanay boshlaydi; umidsizlik, ishonchsizlik, tushkinlik kayfiyatiga beriladi; ruhiy muvozanati izdan chiqadi, tafakkuri o'tmaslashadi, diqqati tez bo'linadi, xotirasi xiralashadi, tasavvuri pasayadi, akademik faolligi sustlashib ketadi. Odatiy hayot tartibining depressiv o'zgarishi frustratsiya holatiga ko'chib boradi.

Frustratsiya – bu shaxsning ongi va faoliyatining tartibsiz psixologik holati bo'lib, shaxsning o'z maqsadiga erishishini juda ham istashi yo'lidagi yengib bo'lmas va asossiz (yoki sub'ekt tomonidan shunday tushunish va kechinmalar) ob'ektiv to'siq hisoblanadi. Frustratsiya shaxsning ma'lum bir maqsadga erishishga harakati va shu harakat yo'lida yuzaga kelgan to'siqni yengishdagi ob'ektiv imkoniyatlari o'rtasidagi ichki konfliktdir [5].

Frustratsiya (lot. frustratio — aldanish, rejalarning barbod bo'lishi) — muammoni hal qilish yoki maqsadga erishish yo'lidagi faoliyatni izdan chiqaruvchi ruhiy holat. U kishining maqsadga erishishi yo'lida uchraydigan, ob'ektiv ravishda yengib bo'lmaydigan yoki sub'ektiv ravishda shunday tuyuladigan qiyinchiliklar tufayli paydo bo'ladi. Frustratsiyani keltirib chiqaruvchi sabablar frustrator deyiladi. Frustratsiya asosan, salbiy hissiyotlar uyg'otadi.

Frustratsion – “engib bo‘lmas va asossiz (yoki sub’ekt tomonidan shunday tushunish va kechinmalar) ob’ektiv to‘siq”lar tabiatiga ko‘ra: ob’ektiv, sub’ektiv, ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-institutsional to‘siqlarga ajraladi.

Real – ob’ektiv to‘siqlar turmush qurgan talabaning o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan, yangi oilaviy muhit, ta‘lim muassasasi talabalariga bog‘liq bo‘ladi. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, ob’ektiv to‘siqlar sirasiga vaqt tanqisligi, moliyaviy cheklovlar, oilaviy majburiyatlar, ta‘lim muassasasining ichki va tashqi intizomiy, ta‘limiy talablari kiradi. Turmush o‘rtog‘ining barcha yaqinlariga g‘amxo‘rlik qilish, farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanish, oila va o‘qish muvozanatini saqlash, o‘qish jarayonida barcha fanlarni o‘zlashtirib borish, ya‘ni real imkoniyatlar bilan talabaning maqsadlari o‘rtasidagi ziddiyat ob’ektiv frustratsiyani anglatadi.

Sub’ektiv to‘siqlar. Bunday to‘siqlar talabaning shaxsiyatiga, ya‘ni to‘siqlarni yengishga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladi. O‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik, qo‘rquv, tortinish, umidsizlik, o‘ziga past baho berish, “men buni uddalay olmayman” degan xulosada bo‘lish, jur‘atsizlik, qat‘iyatsizlik sub’ektiv frustratsiyani rivojlantiradi.

Ijtimoiy-psixologik to‘siqlar. Oilali talabalarining turmush qiyinchiliklari va o‘qish mashaqqatlarini yengishida uning atrofida turgan insonlarning ko‘magi, amaliy yordami, qo‘llab-quvvatlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Afsuski, ko‘p hollarda ikkinchi tomon talaba qizni kelin qilib olgunga qadar bergan va‘dalarini unutadi yoki ularga amal qilmaydi. Aksincha, yangi oila kattalari (a‘zolari) tomonidan turli bosimlar o‘tkazilishi amaliyotda ko‘p kuzatiladi. Bularning barchasi ijtimoiy-psixologik frustratsiya mazmunini bildiradi.

Tashkiliy to‘siqlar. Tashkiliy frustratsiya oilali talaba tahsil oladigan ta‘lim muassasasi faoliyatiga bo‘g‘liq bo‘lib, o‘quv rejalar, yuklamalar, malaka talablari, belgilangan tartib-qoidalar negizida yuzaga keladi. O‘quv muassasasi rahbarlari, fan o‘qituvchilari tomonidan beriladigan barcha topshiriqlar tashkiliy to‘siqlar mazmunini anglatadi.

Ayon bo‘ladiki, o‘qish davrida oila qurgan yoshlar, ayniqsa, talaba qizlar uchun oila va ta‘lim mas‘uliyati sharoitida psixologik barqarorlikni saqlash jiddiy muammo sanaladi. Kuchli iroda, chidamli sabr, oqilona tafakkur, samarali mehnat, psixologik muvozanat kabi qobiliyatlarga ega talaba oila va ta‘lim o‘rtasidagi “oltin oraliq”ni topa biladi.

Albatta, barcha talabalar – yoshlar, avvalo, davlatimiz, Prezidentimiz himoyasidadir. Davlatimizning rasmiy asoslarida oilali talabalarni himoya qilish, ularga akadem ta‘til berish, OTM ichki imkoniyatlari doirasida moddiy qo‘llab-quvvatlash belgilab qo‘yilgan. Shunday bo‘lsa-da, yetuk malakali kadr bo‘lib yetishish uchun, birinchi navbatda, talabaning shaxsiy irodasi, kuchli kognitiv faoliyati, oilaviy muhiti muhim rol o‘ynaydi. O‘qish davrida talabalarining, ayniqsa, qizlarning oila qurish masalasini jiddiy o‘ylab ko‘rish, huquqiy asoslash sifatli bilim olish olishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi, shubhasizdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Акромава Ф., Билолова З., Жовлиев И. Оила энциклопедияси.-Т: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi». 2019. 111-б.
2. Исмоилова Н., Бўлажак педагогларда фрустратсион толерантликни шакллантириш. Таълим психологияси / Педагогическая психология. Электрон манба: <file:///C:/Users/User/Downloads/b-lazhak-pedagoglarda-frustratsion-tolerantlikni-shakllantirish.pdf>
3. Лутфуллаева Н.Х. Турмуш қурган талабаларнинг оилавий муносабатларга тайёргарлигининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Психология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т.: 2006. – 4 б. <https://unilibrary.uz/dissertation/799782>
4. Файбуллаева З. Қўлида бола билан ўқийтган талабалар. Уларни қўллаб-қувватлашга эътибор қаратиладими? <https://kun.uz/kr/68921062#!>
5. Ғозиев Э. Умумий психология. Психология мутассислиги учун дарслик. I китоб.-Т: [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi ,2002. 43-б.

